



ISSN 2091-5187

# СЕРВИС

№2

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ЖУРНАЛ

2025



# СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 2-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда  
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий  
жамоаси:**

**Бош муҳаррир:**

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир**

**ўринбосари:**

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

**Масъул котиб:**

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

**Муҳаррирлар:**

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров

PhD, доцент И.М.Пардаева

PhD, И.Ш.Эрназарова

**Техник муҳаррир:**

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

**Корректор:**

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

**Саҳифаловчи:**

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба  
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида  
тарқатилади.**

**Тахририят манзили:**

140100, Самарқанд шаҳар,  
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,

+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53

эл.почта:

samisiservis@mail.ru

**Тахририят кенгаши раиси:**

**М.Э.Пўлатов** – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис  
институти ректори, и.ф.д., профессор

**Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:**

**Д.Х.Асланова** – СамИСИ илмий ишлар ва  
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

**Тахрир кенгаши аъзолари:**

**Б.А.Бегалов** – Ўзбекистон Республикаси Президенти  
ҳузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,  
профессор

**М.Қ.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.К.Ғоибназаров** – и.ф.д., профессор.

**М.М.Мухаммедов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Д.Р.Зайналов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Муртазаев** – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

**М.Р.Болтабаев** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Р.Х.Эргашев** – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

**И.С.Тўхлиев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**К.Б.Уразов** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Қ.Ж.Мирзаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.И.Исроилов** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Г.М.Шодиева** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Б.Абдукаримов** – СамИСИ профессори, и.ф.н.

**Р.Қобилов** – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

**С.Н.Тошназаров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**Р.Н.Нормахматов** – СамИСИ профессори, т.ф.д.

**А.Бектемиров** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**О.М.Пардаев** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**М.Т.Алимова** – СамИСИ профессори, и.ф.д.

**З.Дж. Адилова** – ТДИУ профессори, и.ф.д.

**Ш.О.Қувондиқов** – СамИСИ профессори в.б., иқтисод  
фанлари доктори

**Л.Н.Халикова** – СамИСИ профессори, DSc

**Ф.А.Сафаров** – СамИСИ доценти, DSc

**А.М.Каримова** – СамИСИ профессори в.б., DSc

<b>Fotimaxon Ibragimovna Ergasheva</b> Jamoatchilik bilan aloqalarni boshqarish funktsiyalari va tamoyillari	156
<b>Xilola Nematovna Ochilova</b> Oliy ta’lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarishning ahamiyati	162
<b>Niyozxo’ja Bahroil o’g’li Yahyoxonov</b> Samsung kompaniyasining marketing faoliyati tahlili	168
<b>Xilola Nematovna Ochilova, Asilbek Po’lat o’g’li Ne’matov</b> Oliy ta’lim muassasalarida pedagog-xodimlarni boshqarishning samaradorligini baholash yo’llari	173
<b>ИНВЕСТИЦИЯ</b>	
<b>Musurmon Axmadovich A’zamov, Ra’no Sherali qizi Xoliqulova, Muzaffar Janobiddinovich Suyunov</b> Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiyalarning o’rni va ahamiyati	177
<b>Ozodbek Shuhrat o’g’li Jumaqulov</b> Investitsion jozibadorlikni oshirishni iqtisodiy rivojlanishga ta’siri	181
<b>МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ</b>	
<b>Nuriddin Elamonovich Ernazarov</b> Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig’ini soliq bazasini hisoblash amaliyotini takomillashtirish	188
<b>Bobir Xo’jaqul o’g’li Qilichov</b> Sug’urta bozorlari va global turizmning o’zaro bog’liqligi	191
<b>Зариф Юсупович Аминов</b> Хизмат кўрсатувчи корхоналар иқтисодий хавфсизлиги ҳолатини баҳолашда қўлланиладиган кўрсаткичлар тизими ва уларни аниқлаш йўллари	194
<b>To’lqin Ismatulla o’g’li Yahyoyev</b> Pul oqimlari harakatini moliyaviy hisob xalqaro standartlariga ko’ra aks ettirilishi	198
<b>БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ</b>	
<b>Бекзод Сайдазим ўғли Бурхонов</b> Инсон ресурслари самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичлар ва унга таъсир этувчи омиллар	202
<b>Шахриёр Шодиёрович Тураев</b> Адвокатлик тузилмалари адвокатга иш ҳақи тўловлари ва унинг бухгалтерия ҳисобини такомиллаштириш	206
<b>Baxtiyor Xushvaktovich Azizkulov, Musurmon Axmadovich A’zamov, Dilafruz Asqarjon qizi Uroqova</b> Klasterlar faoliyatini ekonometrik prognozlash	210
<b>ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА</b>	
<b>Feruz Kubaymurodovna Ismoilova</b> Ta’lim xizmatlari bozorida malakali kadrlarga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish asoslari	215
<b>Akram Abduraxmonovich Azizqulov, Is’haq Abduraxmonov</b> Xizmat ko’rsatish odobi Yusuf Xos Xojib talqinida	219
<b>Khasan Khankeldiyev, Shakhrux Bobojanov</b> A study on preference for either online education courses or traditional ones at turin polytechnic university in Tashkent	223
<b>ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР</b>	
<b>Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев</b> Ҳар биримиз 8,2 миллиард кишининг биримиз	227

**Xilola Nematovna Ochilova** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Menejment” kafedrasida dosenti v.b., PhD

**Asilbek Po‘lat o‘g‘li Ne‘matov** – SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali, Biznesni boshqarish yo‘nalishi, 21-04 guruh talabasi

## OLIV TA‘LIM MUASSASALARIDA PEDAGOG-XODIMLARNI BOSHQARISHNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH YO‘LLARI

**Annotasiya.** Maqolada oliy ta‘lim muassasalarida pedagog-xodimlarni boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash mezonlari, va shu mezonlarni amalga oshirish ko‘rsatkichlari yoritib berilgan hamda oliy ta‘lim muassasalarida samaradorliqni baholash bo‘yicha takliflar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, oliy ta‘lim, menejment, boshqaruv, professor-o‘qituvchilar, talabalar, boshqaruv xususiyatlari, boshqaruv samaradorligi, baholash mezonlari.

**Kirish.** Bugungi kunda OTMda samaradorlikni baholash bo‘yicha o‘ziga xos farqlar bor. Bu quyidagi jihatlar bilan bog‘liq: rahbariyat oliy ta‘lim muassasasi faoliyatida zamonaviy boshqaruvni amalga oshirish zarurligini anglab yetganligi; menejmentning umumiy tarkibida boshqaruv integratsiyasi darajasi; zamonaviy boshqaruv ishini tashkil qilishga qodir malakali mutaxassislarni tanlash; zamonaviy boshqaruv siyosati vositalarini ishlab chiqish va natijada OTMning strategik va taktik maqsadlariga erishish uchun o‘z vazifalarini sifatli bajarish; muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish va yakuniy faoliyat ko‘rsatkichlariga erishish hamda raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni qo‘llab-quvvatlash darajasi.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy boshqaruv konsepsiyasining samaradorligi faqat har biri mustaqillik va yaxlitlikka ega bo‘lgan qo‘shimcha tarkibiy qismlar tizimi asosida baholanishi kerak. Ularning tarkibidan zamonaviy boshqaruv faoliyati samaradorligini va boshqaruvni samaradorligini ajratamiz.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Oliy ta‘lim tizimi boshqarishni takomillashtirishga oid masalalar bilan mamlakatimiz olimlari tomonidan S.S.G‘ulomov, A.T.Shermuhammedovlar<sup>1</sup>, M.A.Ikromov<sup>2</sup>, M.Q.Pardayev,<sup>3</sup> M.E.Po‘latov, Q.X.Abduraxmonov, Sh.R.Xolmo‘minov, N.Q.Zokirova<sup>4</sup> kabilar shug‘ullanib kelmoqdalar. Ushbu mualliflar tomonidan bir qancha adabiyotlar va ilmiy maqolalar nashr qilingan. Unda asosan ta‘lim tizimini takomillashtirish, raqamli iqtisodiyot, raqamli ta‘limni joriy qilish, personalni boshqarish kabi masalalar yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada oliy ta‘lim tizimida pedagog-xodimlarni boshqarish bo‘yicha makon va zamon, mantiqiy, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Oliy ta‘lim muassasalarida zamonaviy boshqaruv faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda, uning samaradorligini baholashning asosiy bosqichlarini aniqladik. Bu taklif etilayotgan shakllantirish algoritmidan aks ettirildi (1-rasm).

Taklif etilayotgan mezonlarga muvofiq sifat va son ko‘rsatkichlari tizimi shakllantirildi (1-jadval).


Bu jadvalda keltirilgan muvozanatli kompleks yaratilishini ta‘minladi. Tadqiqot jarayonida OTMda boshqaruv faoliyati samaradorligini uning faoliyati barqarorligini tahlil qilish asosida aniqlash mumkin, degan xulosaga keldik. Shu sababli uni baholash uchun ajratilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha OTM rivojlanish barqarorligi koeffitsiyentidan foydalanishni taklif etamiz:

<sup>1</sup> G‘ulomov S.S., Shermuhammedov A.T. Razvitiye sifrovogo marketinga v O‘zbekistane. // “O‘zbekistonda harakatlar strategiyasi samaradorligini oshirishda marketing konsepsiyalaridan foydalanish muammolari” mavzusida XI AK materiallari to‘plami. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti. 2019. – 24-29 betlar.

<sup>2</sup> Ikromov M.A., Shermuhammedov A.T. Sifrovoy tovar: strategii proizvoditeley i prodovsov. // “O‘zbekistonda harakatlar strategiyasi samaradorligini oshirishda marketing konsepsiyalaridan foydalanish muammolari” mavzusida XI AK materiallari to‘plami. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti. 2019. – 100-103 betlar.,

<sup>3</sup> Pardayev M.Q. Raqamli iqtisodiyotning ta‘rifi, maqsadi, ijobiy va salbiy tomonlari. // “Servis” ilmiy-amaliy jurnali. 2019 1-son. – 5 bet., Pardayeva va boshqalar. Ta‘lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirish masalalari. Monografiya. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – 260 bet.

<sup>4</sup> Abduraxmonov Q.X., Xolmo‘minov Sh.R., Zokirova N.Q. Personalni boshqarish. Darslik. T., “O‘qituvchi” NMIU, 2008. – 656-bet.



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalari boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash algoritmi<sup>1</sup>

1-jadval

OTM boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari<sup>2</sup>

Mezonlar	Ko‘rsatkichlar
1.Hamkorlar bilan o‘zaro aloqalar barqarorligi	1.1. Amaldagi o‘zaro aloqalar yo‘nalishlari soni 1.2. Har bir yo‘nalishda amal qiladigan o‘zaro aloqalar zanjirlari soni. 1.3. O‘zaro aloqalar zanjirida amaldagi aloqalar dinamikasi darajasi: tarmoqda yangi munosabatlar o‘rnatish va hamkorlarni almashtirish tezligi. 1.4. Tarmoq ichida hamkorlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar smetasini tuzish optimallik darajasi. 1.5. Hamkorlarning bir-biriga moslashuv darajasi: - hamkorga ishonch darajasi; - bir-biriga nisbatan majburiyatlarni bajarish darajasi. 1.6. Hamkorlar manfaatlarini qondirish darajasi: olingan natijalarning kutilgan natijalarga muvofiqlik darajasi. 1.7.Hamkorlik natijasida hamkorlik tarmog‘i yangi sifatleri paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadigan o‘zaro aloqalar darajasi. 1.8. O‘zaro aloqalarning axborot ta‘minoti darajasi: - ichki va tashqi axborotlarning to‘liqlik va ishonchlilik darajasi, - axborot olish tezkorligi, -Tarmoq ichida axborot almashinish darajasi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi

	1.9. Qo'shma qarorlarning innovatsionlik va sifat darajasi.
2. Iste'molchilarning sodiqligi	<p>2.1. Ta'limning ochiqlik darajasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- iste'molchi uchun o'qitish qiymatining ochiqlik darajasi;</li> <li>- pullik asosda o'qitishda amaldagi imtiyozlar va chegirmalar tizimining rivojlanish darajasi</li> <li>- o'qitish shakllari va turlarini, amalga oshirish shartlari va muddatini tanlash imkoniyati;</li> <li>- moslashuvchan mashg'ulotlar jadvali, qulay dars jadvali, fan ustida mustaqil ishlash imkoniyati mavjudligi.</li> </ul> <p>2.2. Olingan ta'limning foydalilik va qimmatlilik darajasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- olingan ta'limga mehnat bozorida talab darajasi;</li> <li>- olingan ta'limning mehnat bozori asosiy talablariga muvofiqlik darajasi;</li> <li>- olingan ta'limning davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiqlik darajasi;</li> <li>- olingan ta'limning bo'lg'usi mehnat faoliyati murakkabliklari va o'ziga xosliklariga muvofiqlik darajasi.</li> </ul> <p>2.3. Bitiruvchilar ehtiyojlarini qondirish darajasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- olingan vakolatlar to'plamining bitiruvchilarning kasbga ega bo'lish, o'z-o'zini anglash va shaxsiy kamol topish maqsadlariga muvofiqlik darajasi;</li> <li>- OTMda o'qishni davom ettirish imkoniyati (magistratura, ikkinchi oliy ma'lumot, malaka oshirish va qayta tayyorlash, aspirantura);</li> <li>- OTMni tamomlagach, tanlangan kasb bo'yicha ishga joylashish imkoniyati;</li> <li>- OTMning bitiruvchilarni ishga joylashtirishda ishtirok etish darajasi.</li> </ul> <p>2.4. Bitiruvchilarning OTM bilan o'zaro aloqalar darajasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- magistratura, ikkinchi oliy ma'lumot, malaka oshirish va qayta tayyorlash, aspirantura uchun oliy ta'lim muassasasiga hujjat topshirgan bitiruvchilarning ulushi;</li> <li>- sobiq bitiruvchilar tomonidan yosh mutaxassislariga murojaatlar ulushi;</li> <li>- bitiruvchilar uyushmasi mavjudligi va uning faoliyat samaradorligi.</li> </ul> <p>2.5. Ish beruvchilarning bitiruvchilar kasbiy tayyorgarlik sifatidan qoniqqanlik darajasi.</p>
3. OTMning ishbilarmonlik faolligi	<p>3.1. O'qitish jarayonining sifat darajasi.</p> <p>3.2. OTM professor-o'qituvchilari tarkibining sifat darajasi</p> <p>3.3. Resurslar ta'minoti sifat darajasi</p> <p>3.4. Ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatining rivojlanish darajasi</p>
4. OTM imidji	<p>4.1. Oliy ta'lim bozorida OTMning muvaffaqiyat darajasi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mintaqaviy bozorda OTM reytingi.</li> <li>- OTM egallab turgan bozor ulushi.</li> </ul> <p>4.2. OTMning ijtimoiy faollik darajasi.</p> <p>4.3. OTM faoliyatining jamiyatda tan olinish darajasi.</p>

Boshqaruv faoliyati samaradorligi va uning natijalariga asoslangan qiyosiy dinamik qatorlar har bir ko'rsatkichning yakuniy natijaga ta'siri va samaradorligi o'zgarishining asosiy tendensiyalarini aniqlashga, shuningdek, universitetning raqobatli ustunligini ta'minlash va saqlab qolish uchun kelajakdagi maqsadlarga erishishni prognoz qilishga imkon beradi.

Boshqaruv samaradorligining qiyosiy tahlili barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Boshqaruv harajatlari tarkibidagi operatsion harajatlar ulushining umumiy o'sish sur'ati ushbu ko'rsatkichning o'zgarishi bo'yicha ijobiy tendensiyani ta'minladi.

Olingan natijalar oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv faoliyati samaradorligini, uning o'zini o'zi ta'minlashi foydaliligini miqdoriy jihatdan asoslashga imkon berdi.

Shuning uchun oliy ta'lim muassasalarida to'liqlik va komplekslikka erishish uchun samarali baholashni ikkita tarkibiy qism orqali amalga oshiramiz: zamonaviy boshqaruvni amalga oshirish samaradorligi va uni tashkil etish samaradorligi.

Zamonaviy boshqaruvni amalga oshirish samaradorligini baholash mezonlari uchta daraja

bo'yicha guruhlangan: 1) faoliyatni boshqarish: bozor bilan kommunikativ aloqalarni rivojlantirishda ochiq tizim sifatida oliy ta'lim muassasalarini boshqarish; 2) funksiyani boshqarish: menejmentning barcha funksiyalari o'zaro bog'liqligida «kasbiy faoliyat ehtiyojlaridan bozor ehtiyojlariga» tamoyilini amalga oshirish; 3) talabni boshqarish: barcha toifadagi mijozlar talabini yaratish, muvofiqlashtirish, qondirish va ilg'or shakllantirish.

Biz shakllantirgan, asosiy mezonlar muvozanatlangan kompleksi o'z ichiga olgan oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini amalga oshirish samaradorligini baholash tizimi keltirilgan.

Oliy ta'limining yuqorida ko'rib chiqilgan qolgan barcha samaradorlik bo'yicha namoyon bo'lishlari yoki muayyan ta'lim muassasasiga nisbatan aniqlanishi mumkin emas, chunki ular butun oliy ta'lim tizimi faoliyatining umumiy natijasi sifatida namoyon bo'ladi yoki oliy ta'lim muassasalari tayyorgarlik jarayonida va oliy ma'lumotli mutaxassisni kelgusida ishga joylashtirish jarayonida yuzaga keladigan eksternal harakteriga ega bo'ladi. Samaradorlikning umumlashtirilgan tavsifini, bizningcha, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining integral samaradorligi, deb atash mumkin, chunki ko'rib chiqish uchun taklif etilgan jihatlar ma'lum darajagacha bir-biri bilan bog'liq bo'lib, o'zaro ta'siri bilan tavsiflanadi.

**Xulosa va takliflar.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalari faoliyati samaradorligini oshirishning integral samaradorlikni oshirish nuqtai nazaridan biznes bilan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari hamkorligining eng istiqbolli shakllarini o'z ichiga oladigan mexanizmlari taklif qilindi. Fikrimizcha, bu kasbiy akademiyalar (amaliy va tarmoq oliy ta'lim muassasalari uchun), universitet bazasidagi o'quv va ishlab chiqarish majmualari, shu jumladan, kichik sohalar, talabalar ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari (sohalar), sheriklik va ushbu shaklning rivojlanishi mahsuli o'quv va ilmiy-innovatsion komplekslar (tegishli ilmiy bazaga ega yetakchi oliy ta'lim muassasalari uchun) hisoblanadi.

Taklif etilgan o'zaro aloqa shakllari, bizningcha, quyidagilarni ta'minlashga imkon beradi: oliy ta'lim muassasalari faoliyatining makrosamaradorlikni ta'minlashda ta'lim xizmatlari bozorida halol raqobatni rivojlantirish; biznes bilan ittifoqning tashkiliy-huquqiy shakllari yangi tashkiliy tarkiblarini sinash; oliy kasb ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish; ilg'or tajribalarni ko'paytirish; ko'p kanalli moliyalashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish; tegishli darajadagi mutaxassislarga, shu jumladan, miqdoriy va sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan ehtiyojning yetarli darajada aniq uzoq muddatli prognozi; ish beruvchilarni kasb ta'limi muassasalari faoliyatiga jalb etish, bitiruvchilarning malakasini attestatsiyalash va sertifikatlashning korporativ tizim doirasida mutaxassislarni tayyorlash natijalarini monitoring qilish orqali mutaxassislar tayyorlash sifatini ta'minlash; oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini sinovdan o'tkazish va keng joriy etish.

<p style="text-align: center;"><b>Х.Очилова, А.Нематов</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Способы оценки эффективности управления педагогическими кадрами в высших учебных заведениях</b></p> <p><b>Аннотация.</b> В статье описываются критерии оценки эффективности управления педагогическими кадрами в высших учебных заведениях, показатели реализации этих критериев, а также даются предложения по оценке эффективности в высших учебных заведениях.</p> <p><b>Ключевые слова:</b> образование, высшее образование, управление, администрация, преподаватели, студенты, характеристики управления, эффективность управления, критерии оценки.</p>	<p style="text-align: center;"><b>Kh.Ochilova, A.Nematov</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Ways to assess the effectiveness of teaching staff management in higher education institutions</b></p> <p><b>Abstract.</b> The article describes the criteria for assessing the effectiveness of teaching staff management in higher education institutions, indicators of the implementation of these criteria, and makes proposals for assessing effectiveness in higher education institutions.</p> <p><b>Keywords:</b> education, higher education, management, administration, professors, students, management characteristics, management effectiveness, assessment criteria.</p>
---	---

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят  
бўлимида нашрга тайёрланди.

19.05.2025 йилда теришга берилди. 06.06.2025 йилда босишга рухсат этилди.  
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84<sub>1/8</sub>. “Times” гарнитураси. Офсет  
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт  
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0036А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг  
матбаа бўлимида чоп этилди.  
Лицензия № 025316.  
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.